

ABU BAKR JASSOS: HAYOTI, TAFSIR ILMIGA QO‘SHGAN HISSASI VA FIRQALAR HAMDA MAZHABLARGA BERGAN RADDIYALARI.***Axadov Inomjon Jamolitdinovich****Imom Buxoriy nomidagi Toshkent Islom institutining “Aqoid va fiqhiy fanlar” kafedrası o‘qituvchisi. +998908080465*

Movarounnahr diyori ko‘plab ilmlarga beshik bo‘lib uni dunyoga taqdim etgan. Shu yo‘sinda tafsir ilmi doirasida ham katta ahamiyatga ega. Movarounnahr mufassirlari, asosan, islom madaniyatining rivojlanishi va Qur'on tafsirining mustahkamlanishi davrida muhim rol o'ynagan. Movarounnahr – O'rta Osiyoning qadimgi hududlaridan biri bo'lib, bugungi kunda O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'izistonning ayrim qismlarini o'z ichiga oladi. Bu hudud islom tarixida muhim o'rin tutgan va ko'plab mufassirlar bu yerda faoliyat yuritganlar.

Movarounnahr mufassirlari Qur'onni chuqur o'rganish, tafsir qilish va musulmonlarning diniy bilimlarini oshirishda katta hissa qo'shgan. Bu mufassirlar o'z asarlarida Qur'on va sunnatni izohlar, ularning ma'nolarini tushuntiradilar, hamda ijtimoiy hayotda amaliy ko'rsatmalar beradilar.

Eng Mashhur Mufassirlardan, Imom al-Buxoriy (810-870 y) hadisning eng mashhur mualliflaridan biri bo'lib, u Qur'on tafsirida ham juda ko'p mehnat qilgan. U tomonidan yozilgan "Al-Jome as-Sahih" asarida Qur'on ayatlari bilan bog'liq hadislarni ham o'z ichiga olgan. Faxriddin ar-Roziy (1149-1209 y) Qur'oni karim hukmiy oyatlari tafsirining mashhur olimlaridan biri. U "Tafsir al-Kabir" asarida muhim tafsiriy masalalarni yoritib bergan. Imom Abu Mansur Moturudiy (vafotlari hijriy 944 y). Moturudiyning “Ta’vilatu ahlis-sunna ” nomli tafsirlari bo‘lib, bu tafsirlarida mo’tazila, xavorij, rofiza, karromiy, jahmiya, mushabbiha, munajjim va boshqa fiqralarga raddiya berganlar. Yana ko‘plab Movarounnahrdan yetishib chiqqan mufassirlarni sanab o‘tishimiz mumkin.

Movarounnahr mufassirlari nafaqat Qur'onni o'rganishda, balki musulmonlarning madaniy va ijtimoiy taraqqiyotida ham muhim rol o'ynagan. Ularning asarlari bugungi kunda ham o'qilmoqda va diniy bilimlarimizni kengaytirishda yordam bermoqda. Islomiyat tarixi va faoliyatining kelajagi uchun bu mufassirlarning merosi katta ahamiyatga ega. Ana shunday buyuk mufassirlardan biri Abu Bakr Ahmad ibn Ali ar-Roziy al-Jassosdir. Ammo bu kishini ko'pchilik ulamolar eronning Ray shahriga nisbat beradilar va shu gapni quvvatlaydilar. Bu kishini Samarqandga nisbat berishlikda ismlar o'xshashligidagi chalkashlik deb deb izohlaydilar. Lekin nima bo'lganda ham bu kishi hanafiy mazhabini qo'llab quvvatlaydilar.

Abu Bakr Jassosning hayoti va ilmiy faoliyati.

Islom tafsir ilmining yirik namoyandalardan biri bo'lgan Abu Bakr Ahmad ibn Ali ar-Roziy al-Jassos (vafoti: 370 h./980 m.) hanafiy mazhabiga mansub faqih va mufasssirdir. U Qur'oni karimni tafsir qilishda fiqhiy asoslarni mujassamlashtirgan, mantiqiy yondashuv va hujjatli isbotlar asosida tafsir ilmini rivojlantirgan.

Abu Bakr Jassos as-Samarqandiy Bag'dodda yashab, ilmiy faoliyat yuritgan. U Imom Abu Hanifaning ta'limotiga sodiq qolgan, uning fiqhiy uslubini tafsirga tatbiq etgan. Jassos o'z davrida yirik faqih, usuliy va mufasssir sifatida tanilgan. U o'z zamonasining mashhur olimlari — Abu Bakr al-Ka'biy (mu'taziliy) va boshqalar bilan bahslar olib borgan. Asosiy asarlari quyidagilar:

1. "Ahkām al-Qur'ān" — Qur'ondagi shar'iy hukmlarni fiqhiy asosda izohlaydigan uch jildlik mashhur tafsir asari.
2. "Al-Fusūl fil-Usūl" — Usul al-fiqhga oid muhim risola.
3. "Mukhtasar al-Tahsīn" — fiqh va tafsirga oid masalalarni ixcham shaklda bayon qilgan.
4. "Manosik".

Bu asarlaridan tashqari Imom Muhammadning "Al-jomi as-sag'iy", "Al-jomi al-kabiyr" va "Muxtasari Tahoviy" kabi muhim ahamiyat kasb etgan asl manbalarga sharhlar yozgan.¹

Mufasssirning tafsir metodologiyasi va "Ahkām al-Qur'ān" asarining tafsir ilmi borasida tutgan o'rni.

Mufasssir Jassos tafsirga fiqhiy yondashuvni olib kirgan ilk mufasssirlardandir. U Qur'on oyatlarini sharhlar ekan, hanafiy fiqh qoidalari asosida dalillar keltirib, hukmlarni tafsir qilgan. Ayniqsa, u oyatlardagi hukm, sabab, shart, natija kabi uslubiy unsurlarni mantiqiy tahlil qilgan.

Misol:

كُتِبَ عَلَيْكُمْ إِذَا حَضَرَ أَحَدُكُمْ الْمَوْتُ إِنْ تَرَكَ خَيْرًا الْوَصِيَّةَ لِلْوَلَدَيْنِ وَالْأَقْرَبِينَ بِالْمَعْرُوفِ حَقًّا عَلَى الْمُتَّقِينَ

"Birortangizga o'lim kelganda, agar u boylik qoldirayotgan bo'lsa, ota-onasi va yaqinlariga to'g'rilik bilan vasiyat qilish taqvodorlarning burchi sifatida sizlarga farz qilindi".²

Bu oyatni tafsirlar ekan, Jassos hanafiy fiqhga tayanib, vasiyat hukmida voris bo'lgan kishining huquqi, boshqa mazhablardagi ixtiloflar, hadislar va sahobalar ijmosi orqali chuqur tahlil qilib beradi.

Firqalar va mazhablarga bergan raddiyalari.

Mufasssir o'zining "Ahkām al-Qur'ān" asarida Qur'on oyatlarining huquqiy (ahkomiy) ma'nolarini tafsir qilgan. Shu asarda u ba'zi firqalarga, jumladan Rofiziylar

¹ "Toj ut-tarajim". Abul Fado Zayniddin Abuladl qosim ibn Qutlubug'o as-Sudaniy.

² Baqara surasi 180-oyat. 1-juz. 162- sahifa. Tafsiri hilol. "Sharq" nashriyot – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent- 2008

(shi'a oqimlari), Mu'tazilalarga raddiyalar ham bergan. Quyida Jassosning Rofiziylarga bergan raddiyalaridan ba'zilarini, asarlaridagi manbalar bilan keltiramiz.

1. "Ahkām al-Qur'on" asarida Rofiziylarga raddiya:

a) Imom Ali va xalifalik masalasi:

وَإِذْ قَالَ رَبُّكَ لِلْمَلَائِكَةِ إِنِّي جَاعِلٌ فِي الْأَرْضِ خَلِيفَةً قَالُوا أَتَجْعَلُ فِيهَا مَن يُفْسِدُ فِيهَا وَيَسْفِكُ الدِّمَاءَ وَنَحْنُ نُسَبِّحُ بِحَمْدِكَ وَنُقَدِّسُ لَكَ قَالَ إِنِّي أَعْلَمُ مَا لَا تَعْلَمُونَ

Esla, Robbing farishtalarga: “Men yer yuzida xalifa qilmoqchiman” dedi. Ular: “Unda fasod qiladigan, qonto’kadigan kishini qilmoqchimisan? Va holbuki, biz Senga tasbeh hamd aytib va seni ulug’lab turibmiz”, dedilar. U: “men, siz bilmaganni bilaman”, dedi.³

Jassos bu oyatni tafsir qilarkan, Rofiziylarning Imom Ali (r.a.) xalifa etib tayinlangan, deb da’vo qilishlarini rad etadi. U Qur’onda xalifalik yoki imomat haqida aniq nom tilga olinmasligini, balki bu masala ijthod va shuro asosida hal qilinganini aytadi.⁴ Ushbu o’rinda mufassir Jassos Ahli-Sunna va-l-Jamo‘aning ijtimoiy tartibga oid qarashlarini bayon qiladi.

b) Sahobalarni tahqirlashga raddiya.

Rofiziylar ko‘plab sahobalarni, ayniqsa Abu Bakr, Umar, Usmon kabi xalifalarni tahqirlashga harakat qilishadi. Jassos bu oyatni keltirib, sahobalar Alloh tomonidan rozi bo‘lingan shaxslar ekanini ta’kidlaydi.

Misol:

وَالسَّابِقُونَ الْأَوَّلُونَ مِنَ الْمُهَاجِرِينَ وَالْأَنْصَارِ وَالَّذِينَ اتَّبَعُوهُمْ بِإِحْسَانٍ رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُمْ وَرَضُوا عَنْهُ وَأَعَدَّ لَهُمْ جَنَّاتٍ تَجْرِي تَحْتِهَا الْأَنْهَارُ خَالِدِينَ فِيهَا أَبَدًا ذَلِكَ الْفَوْزُ الْعَظِيمُ

Birinchi peshqadam muhojirlar va ansoriylar va ularga yaxshilik bilan ergashganlar. Alloh ulardan rozi bo’ldi, ular ham Allohdan rozi bo’ldilar. Ularga ostidan anhorlar oqib turgan jannatlarni tayyorlab qo’ydi. Ularda abadiy qolurlar. Ana o’sha ulkan yutuqdir.⁵

Mufassir Jassosning sharhi:

Bu oyat Abu Bakr, Umar, Usmon va boshqa sahobalarning afzalligiga ochiq dalildir. U Rofiziylarning ularni tahqirlashini Qur’on oyatlariga zid deya baholaydi.⁶

c) Mut’a nikohi va Rofiziylar:

وَالْمُحْصَنَاتُ مِنَ النِّسَاءِ إِلَّا مَا مَلَكَتْ أَيْمَانُكُمْ كِتَابَ اللَّهِ عَلَيْكُمْ وَأُحِلَّ لَكُمْ مَا وَرَاءَ ذَلِكَ أَنْ تَبْتَغُوا بِأَمْوَالِكُمْ مُحْصِنِينَ غَيْرَ مُسَافِحِينَ فَمَا اسْتَمْتَعْتُمْ بِهِ مِنْهُنَّ فَآتُوهُنَّ أُجُورَهُنَّ فَرِيضَةً وَلَا جُنَاحَ عَلَيْكُمْ فِيمَا تَرَاضَيْتُمْ بِهِ مِنْ بَعْدِ الْفَرِيضَةِ إِنَّ اللَّهَ كَانَ عَلِيمًا حَكِيمًا

³ Baqara surasi 30-oyat. 1-juz. 33- sahifa. Tafsiri hilol. “Sharq” nashriyot – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent- 2008

⁴ Jassos, Ahkām al-Qur’ān, 1-jild, 47-bet (Dorul-kutub al-‘ilmiyyah nashri) 1994.

⁵ Tavba surasi 100-oyat. 2-juz. 604- sahifa. Tafsiri hilol. “Sharq” nashriyot – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent- 2008

⁶ Ahkām al-Qur’ān, 3-jild, 114-bet “Dorul-kutub al-‘ilmiyyah” nashri 1994.

Qo'lingizga mulk bo'lib tushganlardan boshqa erli ayollar ham(harom qilindi). Bu sizlarga Allohning yozganidir. Ana o'shalardan boshqalarni poklik va zino aralashtirmagan holda mollaringiz ila talab qilmog'ingiz halol qilindi. Ulardan huzurlanishingiz sababidan mahrlarini bering. Bu farzdir. Farz mahrdan keyin o'zaro kelishganingiz gunoh emas. Albatta, Alloh biluvchi, hikmatli Zotdir.⁷

Rofiziylar mut'a nikohini halol deb hisoblashadi. Jassos bu oyatning tafsirida mut'a nikohi Rasululloh (s.a.v.) tomonidan bekor qilinganini ta'kidlaydi va Rofiziylarning bu masaladagi da'volarini rad etadi.⁸

Jassos bu yerda sahih hadislarni, xususan, Ali ibn Abu Tolib (r.a.) rivoyat qilgan hadisni keltirib, mut'a bekor qilinganini isbotlaydi.

Mufasssir Jassos asarida Rofiziylarga raddiyalarni ularning hujjatlariga tafsiriy va fiqhiy yondashuv bilan beradi. U raddiyalarida ko'pincha sahih hadislar, ijmo', sahobalarning amali va Qur'on oyatlarini birgalikda tahlil qiladi. Raddiyalar ilmi kalom darajasida emas, balki tafsir va fiqh asosida berilgan bo'lib, Ahli Sunna val-Jamo'aning manhajini himoya qiladi.

2. "Ahkām al-Qur'on" asarida Mo'tazilalarga raddiya:

a) Mo'tazilalarga raddiya:

Mu'tazilachilarning aqlni nasdan ustun qo'yishi, Allohning sifatlarini inkor etishi borasida Jassos ularning dalillarini rad etgan.

"Ahkām al-Qur'on"da Mu'tazilalarning istihsonga qarshi fikrlarini tanqid qiladi va hanafiylarning istihsonga asoslangan yondashuvini himoya qiladi.⁹

b) Shofi'iy va Zohiriylar:

Usulul-fiqhda qiyos, istihson, amal bilan mansux, dalolat qoidalari borasida shofi'iy va zohiriylar fikriga raddiyalar bergan. Masalan, "Amr" (buyruq) lafzining majburiyligi borasida zohiriylar bilan ixtilof qiladi va ularning har bir daliliga fiqhiy-mantiqiy javob beradi.

Jassosning asarlari keyingi hanafiy olimlar, xususan, Burxoniddin Marg'inoniy, Abu Zayd ad-Dabboosiy va boshqalar tafsir va fiqh sohasida ko'plab foydalanishgan. Uning tafsiri, zamonaviy huquqiy tafsir uslublariga asos solgan.

Xulosa.

Abu Bakr Jassos — Qur'on tafsirini fiqhiy asosda olib borgan ilk hanafiy mufasssirlar qatoriga kiradi. U Qur'ondagi shar'iy hukmlarni aniqlashda faqat naslarga emas, balki mantiqiy dalillar, ijtimoiy holat va fiqhiy usullarga ham tayangan.

⁷ Niso surasi 24-oyat. 1-juz. 520- sahifa. Tafsiri hilol. "Sharq" nashriyot – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent- 2008

⁸ Ahkām al-Qur'ān, 2-jild, 55-57-betlar "Dorul-kutub al-'ilmiyyah nashri" 1994.

⁹ Manba: Ahkām al-Qur'ān, 1-jild, 94-96-betlar. "Dorul-kutub al-'ilmiyyah" nashri 1994.

Shuningdek, u turli fiqqlar, xususan Mu'tazila, Shofi'iy, Rafiziylar bilan ilmiy bahslar olib borib, hanafiylikni asrashga harakat qilgan. Uning asarlari, bugungi kunda ham fiqh va tafsir ilmi uchun bebaho manba hisoblanadi.

